**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**"RO’YXATGA OLINDI"**

**№ VM-343-53409-3.20**
**"1" iyul 2003 y.**

**"TASDIQLANDI"**
**O’zbekiston Respublikasi**
**Oliy va o’rta maxsus**
**ta’lim vazirligi**

**______________________**
**"8" iyul 2003 y.**

# BOShQA TARMOQLARDA IQTISODIY TAHLIL XUSUSIYaTLARI
# fanidan
# DASTUR

**Oliy ta’limning 340000 - "Biznes va boshqaruv" ta’lim sohasidagi 5340900 - "Buxgalteriya hisobi va audit" bakalavriat yo’nalishi uchun**

# Toshkent - 2003

**Tuzuvchilar:** prof. Ibragimov A. T.,
k.o'q. Ishonqulov N. F.

**Taqrizchilar:** dots. Fayziev Sh. N.,
dots. Fayziev B. V.

Mazkur o'quv dasturi iqtisodiy yo'nalishlardagi oliy o'quv yurtlarining 4-kurs talabalari uchun mo'ljallangan. Audit sohasida faoliyat ko'rsatadigan mutaxassislar respublikamiz iqtisodiyotining turli tarmoqlaridagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tahlil etish uslublaridan ham xabardor bo'lishi lozim. Shu bois mazkur dasturda qishloq xo'jalik korxonalari, savdo tashkilotlari va qurilish tashkilotlari faoliyatlarini tahlil etishning o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topgan.

Данная учебная программа предназначена для подготовки студентов 4 – курса высших учебных заведений экономического направления. В условиях рыночной экономики подготовка высококвалифицированных аудиторов является объективной необходимостью. В этой связи преподавание данного предмета играет большую роль в процессе подготовки аудиторов. Наряду со знаниями в области аудита, они должны иметь навыки анализа хозяйственной деятельности предприятий различных отраслей народного хозяйства. Исходя из этого в данную учебную программу включены вопросы, отражающие теоретические и практические аспекты особенностей анализа хозяйственной деятельности сельско-хозяйственных, торговых и строительных предприятий.

The given educational program is intended for opening-up of the students 4 - course of higher educational establishments of an economical direction.

In conditions of market economy is by objective necessity the opening-up of the highly qualified auditors. In this connection teaching of the given subject plays a large role during opening-up of the auditors. Along with knowledge in the field of audit they should have skills of the analysis of economic activities of firms of different branches of a national economy. In this connection problems reflecting idealized and practical aspects of features of the analysis of economic activities of agricultural, trade and building firms are included in the given educational program.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## 1. SO'Z BOShI

Respublikamiz iqtisodiyotining malakali kadrlarga bo'lgan talabini hisobga olgan holda yaratilib davlat ta'lim standartlariga kiritilgan ushbu fan talabalarning turli mulkchilikka asoslangan va tarmoq xarakteriga ko'ra farq etuvchi iqtisodiyotning turli jabhalarida iqtisodiy tahlil ishlarini olib borish xususiyatlari bo'yicha bilimlar beradi. Unda qishloq xo'jalik korxonalari, savdo va qurilish tashkilotlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil etishning mazmuni va vazifalari bayon etiladi. Ushbu fanni o'rganish orqali talabalar tarmoq iqtisodini boshqarishni va tadbirkorlikni yo'lga qo'yishning muhim usul va vositalari, korxona moliyaviy holatiga baho berish to'g'risidagi bilimlarga ega bo'ladilar.

### O'qitishning maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi

"Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil xususiyatlari" kursi avvalgi o'qilgan "Boshqaruv va moliyaviy tahlil" fanini davomi bo'lib, talabalarga iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, xususan, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish sohalarida tahlilni o'tkazishning o'ziga xos qirralarini o'rgatish maqsadida o'qitiladi. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlaydigan har qanday mutaxassis asosiy tarmoqdan tashqari yordamchi va qo'shimcha ishlab chiqarish sohalarini ham, ulardagi o'ziga xos xususiyatlarni bilishlari talab etiladi. Fan talabalarga qishloq xo'jaligi, qurilish va savdo korxonalarida iqtisodiy tahlilni tashkil etishda e'tiborga olinadigan muhim qirralarini o'rgatishni o'z oldiga vazifa sifatida qo'yadi.

Ushbu fanni talaba yaxshi o'zlashtirishi uchun quyidagi o'quv fanlari mazmunini bilgan bo'lishlari lozim: "Iqtisodiy tahlil nazariyasi", "Boshqaruv va moliyaviy tahlil", "Buxgalteriya hisobi nazariyasi", "Boshqaruv va moliyaviy hisob", "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari", "Audit", "Moliyaviy menejment".

### "Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil xususiyatlari" fani bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

Bakalavr ushbu fandan quyidagilarni bilishi zarur:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlarini va ularda iqtisodiy tahlilni joriy etish usullarini;

- mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotishni ko'paytirishning eng zarur omillarini va imkoniyatlarini aniqlay bilishni;
- savdo tashkilotlari faoliyatini o'rganishdagi o'ziga xos sanoat korxonalaridan farqli belgilarini anglay olishi;
- qurilish tashkilotlarini faoliyatidagi muhim xususiyatlar va ularning iqtisodiy tahlilni tashkil etishdagi ta'sirini o'rganishni;
- yordamchi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarini umumiy faoliyatga ta'sirini tahlil eta olishni;
- joriy, istiqbolli va tezkor tahlil usullarini boshqa tarmoqlarni tahlil etishda qo'llay bilishni;
- yordamchi tarmoqlarda boshqaruvni oqilona usullarini qo'llash va iqtisodiy tahlilni joriy eta bilishga o'rgatadi.

**Fan bo'yicha talabalar bilimini baholashning tadbirlari**

Fan bo'yicha talabalar bilimi reyting tizimi bo'yicha baholanadi. Umumiy o'quv grafigi bo'yicha ajratilgan soatlarning 70 foizi joriy va oraliq nazoratga, 30 foizi yakuniy nazoratga ajratiladi. Joriy baholash har bir amaliy mashg'ulotda o'rganilgan mavzular bo'yicha kichik testlar, firma va kompaniyalar misolida tuzilgan amaliy masalalarni echish natijalariga qarab amalga oshiriladi. Oraliq baholash esa mavzularni to'liq tushunchasini ifodalovchi tayanch iboralar va so'zlar asosida yozma ish olish natijasi bilan hal etiladi. Talabalarning davomati (20 foizgacha), faolligi (30 foizgacha), daftar tutishi (20 foizgacha) va yakuniy yozma ish (30 foizgacha) bo'yicha joriy va umumiy reyting baholari chiqariladi. Yakuniy nazorat yozma ish yozish asosida tashkil etiladi va baholanadi.

**Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llanilishi**

Fanni o'zlashtirishda ilg'or pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari bo'lmish kabi kompyuterda bajariladigan quyidagi dasturlardan foydalaniladi:

- fanni mazmunini ko'rsatuvchi ko'rgazmali albomlardan foydalanish;
- tayanch iboralar va so'z lug'atlaridan yozma ishni tashkil etish;
- "Buxgalteriya ish joyini avtomatlashtirish" dasturidan foydalanish;
- "1:S Buxgalteriya" dasturidan foydalanish;
- "Buxgalteriya hisobotini va korxona moliyaviy ko'rsatkichlarini avtomatlashtirish";
- Masofaviy o'qitishni tashkil etish.

**Ishchi dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar**

"Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil xususiyatlari" fani IV-kursning VIII semestrida o'qitiladi. Dastlab qishloq xo'jalik korxonalarida iqtisodiy tahlilni o'ziga xos xususiyatlari, so'ngra savdo va qurilish tashkilotlari faoliyatini tahlil etishning mazmuni tushuntiriladi.

**Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar hajmi**

Oliy kasbiy ta'limning "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi davlat standartlarida ushbu kursga 80 soat hajmda vaqt ajratilgan. Ularning 40 soati ma'ruza, 40 soat amaliy mashg'ulot.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi (foizlarda):auditoriya mashg'ulotlari bo'yicha soatlarning 24 soati qishloq xo'jalik korxonalarida iqtisodiy tahlil xususiyatlariga (60 foiz), 8 soati savdo tashkilotlarida iqtisodiy tahlil xususiyatlari (20 foiz), 8 soati qurilish tashkilotlarida iqtisodiy tahlil xususiyatlari (20 foiz)ga ajratilgan.

## 2. FAN DASTURI

**Ma'ruza mashg'ulotlari mavzularining ro'yxati**

**Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatini iqtisodiy tahlilining xususiyatlari**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining xususiyatlari va tahlilning vazifalari. *Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlili, mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili. O'simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahlili, ekin maydoni va hosildorlikni o'zgarishi tahlili.* Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish darajasini tahlili, chorva bosh soni, poda harakati va chorva mollarining mahsuldorligi tahlili. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish, shu jumladan, davlat buyurtmasi bajarilishining tahlili, boshqa talabgorlarga sotish, o'z ishchi va xizmatchilariga sotish ko'rsatkichlarini tahlili. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tovarlilik darajasi va uning o'zgarishini omilli tahlili. *Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini tahlil etish xususiyatlari.*

**Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish tahlili**

Er maydoni tarkibi va o'zgarishini tahlili. Qishloq xo'jaligiga yaroqli erlar, ekin maydoni tarkibi, sug'oriladigan erlar holati tahlili. *Erdan samarali foydalanish tahlilining xususiyatlari. Asosiy ishlab chiqarish vositalari tarkibi va dinamikasini tahlili.* Ko'p yillik va mevali daraxtzorlar, mahsuldor va ishchi hayvonlardan foydalanishning tahlili. Qishloq xo'jaligida asosiy vositalardan samarali foydalanganlik tahlilining xususiyatlari. *Paxta terish mashinalari va traktorlaridan foydalanishni tahlili.* Qishloq xo'jaligida

mehnat resurslaridan foydalanishni o’ziga xos xususiyatlari, doimiy va mavsumiy ishlovchilar tarkibi tahlili. Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishida jamoa va shirkat xo’jalik a’zolarining ishtirokini tahlil qilishning xususiyatlari. Mehnat unumdorligi tahlilining o’ziga xos xususiyatlari.

*Ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni oshirish imkoniyatlarini aniqlash.*

**Qishloq xo’jalik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxini tahlili**

Qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxini aniqlashning o’ziga xos xususiyatlari va tahlilning vazifasi. *Mahsulot turlari bo’yicha ishlab chiqarish tannarxining dinamikasi tahlili.* O’simlikchilik mahsulotlari etishtirish tannarxiga ta’sir etuvchi omillar tahlili, har bir gektar ekin maydonidan olingan hosildorlik va gektariga qilingan xarajatlarning o’zgarishi tahlili. *Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.* Chorva mollari mahsuldorligi va har bosh chorva moliga sarflangan xarajatlarning o’zgarishi tahlili.

Qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxini xarajat elementlari bo’yicha tahlili. *Tannarxni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash.*

**Moliyaviy natijalar tahlilining xususiyatlari**

Qishloq xo’jaligida moliyaviy natijalar shakllanishining o’ziga xos xususiyatlari va tahlilning vazifasi. O’simlikchilik mahsulotlari sotish bo’yicha foyda (zarar)lar tahlili. *Chorvachilik mahsulotlarini sotish bo’yicha foyda (zarar)lar tahlili.* Mahsulotlar sotish, asosiy va moliyaviy faoliyatlarning moliyaviy natijalari tahlili. *O’simlikchilik mahsulotlari rentabellik darajasiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.* Chorvachilik mahsulotlari rentabellik darajasiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.

**Moliyaviy holat tahlilining xususiyatlari**

Qishloq xo’jalik korxonalari moliyaviy holatini tahlil etishning o’ziga xos xususiyatlari. Buxgalteriya balansining aktiv va passiv qismlari tahlili. *Moliyaviy koeffitsientlar, to’lov qobiliyati va mablag’lar harakatchanligi tahlili.* Aylanma mablag’larning tashkil topish manbalari va ularni tahlili. Qishloq xo’jaligi korxonalarining balansini likvidligini tahlili. *Aylanma mablag’lar aylanishi va uning o’ziga xos xususiyatlari tahlili.*

**Savdo tashkilotlari faoliyati tahlilining xususiyatlari**

Tahlilning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Chakana tovar aylanishining tahlili. *Tovar balansi, tovar aylanish hajmiga ta’sir etuvchi omillarning tahlili.* Tovar zaxirasi va tovarlar aylanishi tahlili. Muomala harajatlari va ularning o’zgarish sabablari tahlili.

*Reklama xarajatlari va uning tahlili. Savdoda moliyaviy natijalar shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari va tahlili.* Yalpi daromad va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Chakana savdoda moliyaviy natijalarga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Chakana savdoda rentabellik turlari va ularning darajasiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.Savdoda moliyaviy holat tahlilining o'ziga xos xususiyatlari.

**Qurilish tashkilotlari faoliyati tahlilining xususiyatlari**

Qurilish ob'ektlarini ishga tushirish shartnomaviy muddati bajarilishi tahlili. *Tugallanmagan qurilishni topshiriladigan ob'ekt hajmiga ta'siri tahlili. Qurilishni industrlash darajasi tahlili.* Mehnat resurslaridan foydalanish tahlili xususiyatlari. Qurilishda mashina, mexanizm va boshqa asosiy vositalardan foydalanish tahlili. *Qurilish material resurslari bilan ta'minlanganlik va ulardan samarali foydalanish tahlili.* Qurilish ishlari tannarxi tahlilining xususiyatlari. Moliyaviy holat va moliyaviy natijalar tahlili xususiyatlari.

## 3. AMALIY VA SEMINAR MAShG'ULOTLARI

**Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatini iqtisodiy tahlilining xususiyatlari**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining xususiyatlari va tahlilning vazifalari. O'simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahlili, ekin maydoni va hosildorlikni o'zgarishini tahlili. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish darajasini tahlili, chorva bosh soni, poda harakati va chorva mollarining mahsuldorligini tahlili.* Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini tahlil etishning xususiyatlari.*

**Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni tahlili**

Erdan samarali foydalanish tahlilining xususiyatlari.* Ko'p yillik va mevali daraxtzorlar, mahsuldor va ishchi hayvonlardan foydalanishning tahlili. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanishni o'ziga xos xususiyatlari, doimiy va mavsumiy ishlovchilar tarkibini tahlili. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida jamoa va shirkat xo'jalik a'zolarining qatnashuvini tahlil qilishning xususiyatlari.

Ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni oshirishning imkoniyatlarini aniqlash.*

**Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxi tahlili**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari va tahlilning vazifasi. O'simlikchilik mahsulotlari etishtirish tannarxiga ta'sir etuvchi omillar tahlili, har bir gektar ekin maydonidan olingan hosildorlik va

gektariga qilingan xarajatlarning o’zgarishi tahlili. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.

Qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxini xarajat elementlari bo’yicha tahlili. Tannarxni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash.*

**Moliyaviy natijalar tahlilining xususiyatlari**

Qishloq xo’jaligida moliyaviy natijalar shakllanishining o’ziga xos xususiyatlari va tahlilning vazifasi. O’simlikchilik mahsulotlari sotish bo’yicha foyda (zarar)lar tahlili. Chorvachilik mahsulotlarini sotish bo’yicha foyda (zarar)lar tahlili.* O’simlikchilik mahsulotlari rentabellik darajasiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.*

**Moliyaviy holat tahlilining xususiyatlari**

Qishloq xo’jalik korxonalari moliyaviy holatini tahlil etishning o’ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy koeffitsientlar, to’lov qobiliyat va mablag’lar harakatchanligi tahlili. Qishloq xo’jaligi korxonalarining balansini likvidligini tahlili. Aylanma mablag’lar aylanishi va uning o’ziga xos xususiyatlari tahlili.

**Savdo tashkilotlari faoliyati tahlilining xususiyatlari**

Chakana tovar aylanishining tahlili. Tovar balansi, tovar aylanish hajmiga ta’sir etuvchi omillarning tahlili. Reklama xarajatlari va uning tahlili.* Savdoda moliyaviy natijalarni shakllanishining o’ziga xos xususiyatlari va tahlili. Chakana savdoda rentabellik turlari va ularning darajasiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.*

**Qurilish tashkilotlari faoliyati tahlili xususiyatlari**

Qurilish ob’ektlarini ishga tushirish shartnomaviy muddatining bajarilishi tahlili. Qurilishda mashina, mexanizm va boshqa asosiy vositalardan foydalanish tahlili. Qurilish material resurslari bilan ta’minlanganlik va ulardan samarali foydalanish tahlili. Moliyaviy holat va moliyaviy natijalar tahlilining o’ziga xos xususiyatlari.*

## 4. TAVSIYa ETILADIGAN MAVZULAR BO’YIChA KO’RGAZMA-NAMOYISh MATERIALLARI, O’QUV FILMLARI VA BOShQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO’YXATI

Albomlar, jadvallar, slaydalar.

Internet tizimi bo’yicha saytlar:

1. http://www.nevod.ru/
2. http://www.audit-it.ru/

3. http://www.finanaliz.kiev.ua/
4. http://www.preiskurant.ru/
5. http://www.nature.ru/
6. http://www.bizbook.ru/
7. http://www.biblion.ru/

O'quv filmlari:

1. bozorni o'rganish bo'yicha;
2. marketing tadqiqotlarida tahlil;
3. mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha;
4. korxona moliyaviy holatini o'rganish va tahlil etish bo'yicha;
5. korxona moliyaviy natijaviyligi va uni tahlili bo'yicha;
6. korxonada pul mablag'lari harakati tahlili.

## 5. O'ZLAShTIRISh NAZORATI

Ushbu fan bo'yicha o'quv rejasida jami 80 soat dars o'tish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 40 soat ma'ruza, 40 soat amaliy va seminar darslar. Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va joriy baholash, oraliq baholash va yakuniy baholash orqali amalga oshiriladi. Joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70%, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. "Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil xususiyatlari" fanidan talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 80,0 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 28,0 ball, oraliq baholashga 28,0 ball, yakuniy baholashga esa 24,0 ball ajratiladi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- talabaning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirishi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- ilmiy tezislar tayyorlashi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlashi.

Tayanch tushunchalarga asoslangan yozma ishni usulini o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tadbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi.

## 6. ADABIYoTLAR

### Asosiy adabiyotlar


1. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. - T.: O'zbekiston, 1995.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XX1 asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
6. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. - T.: O'zbekiston, 1999.
7. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish – farovonlik poydevori. // O'zbekiston ovozi 2000 yil 22-iyul.
8. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. - T.: O'zbekiston, 2000.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. - T.: O'zbekiston, 2001.
10. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston ovozi, 17-sentyabr 1996.
11. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston ovozi 30-may 2000.
12. "Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllanishi" haqidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 1999.
13. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999.
14. Abdullaev Yo.A., Ibragimov A.T., Raximov M.Yu. Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob. - T.: Mehnat, 2001.
15. Voxobov A. V., Ibragimov A. T. Moliyaviy tahlil. - T.: Sharq, 2002.

**Qo'shimcha adabiyotlar**


1. Analiz pribilnosti produktsii. - M.: Delo, 1996.
2. Artemenko V.G., Belandir M.V. Finansoviy analiz. Uchebnoe posobie. - M.:; NGAEiU, 1997.
3. Astaxov V.P. Analiz finansovoy ustoychivosti firmi (protseduri svyazanniy s bankrotstvom). - M.: Finansi i statistika, 1996.
4. Analiz finansovoy otchetnosti predpriyatiy pri ix investirovanii i kreditovanii. - M.: 2000.
5. Bakanov M.I., Sheremet A.D. Teoriya ekonomicheskogo analiza. - M.: Finansi i statistika, 1999.
6. Bernstain A.A. Analiz finansovoy otchetnosti. - M.: Finansi i statistika, 1996.
7. Bocharev V.V. Upravlenie denejnim oborotom predpriyatiy i korporatsiy. - M.: Finansi i statistika, 2001.
8. Bocharev V.V. Finansoviy analiz. - Sankt-Peterburg: Piter, 2001.
9. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. Toshkent - 1994.
10. Buxgalterskiy analiz. Perevod s angliyskogo. Kiev - 1998.
11. Vaxrin P.I. Finansoviy analiz v kommercheskix i nekommercheskix organizatsiyax. Ucheb posobie. - M.; Izdatelstvo – knigotorgovix tsentr marketing, 2001.
12. Grigorev Yu.A. Uchet, analiz i kontrol vneshneekonomicheskoy deyatelnosti i valyutnix operatsii. - M.: PAIMS, 1998.
13. Efimova O.V. O sostavlenii poyasnitelnoy zapiski k godovomu otchetu//Buxgalterskiy uchet, № 1. 1997.
14. Efimova O.V. Finansoviy analiz. - M.: Buxgalterskiy uchet, 1996.
15. Ergeshev E. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. – T.: Moliya, 2000.
16. Ibrohimov A.T. Moliyaviy tahlil. - T.: Mehnat, 1995.
17. Irvin D. Finansoviy kontrol. - M.: Finansi i statistika, 1998.
18. Kovalev V.V. Finansoviy analiz. Upravlenie kapitalom. Vibor investitsii. Analiz otchetnosti. - M.: Finansi i statistika, 1995.
19. Kovalev V.V. Metodi otsenki investitsionnix proektov. - M.; Finansi i statistika, 2001.
20. Natsionalnie standarti buxgalterskogo ucheta Respubliki Uzbekistan. – T.: Assotsiatsiya buxgalterov i auditorov Uzbekistan, 2002.
21. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil. - T.; Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999.
22. Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – Samarqand: Zarafshon, 2001.
23. Pavlova L.N. Finansoviy menedjment. - M.: YuNITI-DANA, 2001.
24. To'laxodjaeva M.M. Moliyaviy hisobotni va moliyaviy koeffitsientlarni tahlil qilish. - T.: 1996.

25. Terexova V.A. Mejdunarodnie i natsionalnie standarti buxgalterskogo ucheta i otchetnosti. - M.: Perspektiva, 2000.
26. Robert N. Xolt. Osnovi finansovogo menedjmenta. Perevod s angliyskogo. - M.: 1995.
27. Rojnova O.V. Finansoviy uchet: Teoreticheskie osnovi, metodologicheskiy apparat. - M.: Ekzamen, 2001.
28. Savitskaya G.V. Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatii. M.: I.P. Finans, 2001.
29. Sorokina O.N. Sravnitelniy analiz v osnovnie priemi transformatsii finansovoy otchetnosti v sootvetstvii s mejdunarodnimi standartami. - M.: UMTs, 2001.
30. Rahmonov Q.R. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatini tahlil qilish. - T.: 1996.
31. Finansovaya otchetnost. Realnaya kartina sostoyaniya biznesa. - M.: Delo, 1996.
32. Finansoviy analiz deyatelnosti firmi. M.I. Servis, 1996.
33. Fridman Dj., Orduei Nik. Analiz i ottsenka prinosyashchey doxod nedvijimosti. - M.: Delo, 1997.
34. Xarigeri Ch., Fostger G. Buxgalterskiy uchet: Upravlencheskiy aspekt. - M.: Finansi i statistika, 1995.
35. Xoldervik K. Finansovo-ekonomicheskiy analiz deyatelnosti predpriyatiya. - M.: Finansi i statistika, 1996.
36. Cherkasov V.E. Prakticheskoe rukovodstvo po finansovo – ekonomicheskim raschetam. - M.: Metainform, 1995.
37. Sheremet A.D., Suits V.P. Audit. - M.: INFRA, 1996.
38. G'ulomov S.S. Investitsiyalarning loyihaviy tahlili. - T.: 1998.
39. Robert D. Gatewood, Robert R. Taylor O.C. Ferrell Management / Comperehension, Analysis, and Application/ IRWIN, 1995.
40. Joel G. Siegel, Jae K. SHim, David Minars Financial trouble – SHOOTER spotting & solving financial problems in your company. Mc Graw - Hill, Inc. 1993.
41. David C. Colander. Economics IRWIN, 1993.
42. Donald H. Ph. G. William Glezen. Auditing: Integrated Concepts and Procedures sixth Edition. John Wiley & Sons, Inc., 1994.
43. Payl Peter, James H. Donnely. Marketing, Managment. Knowledge and Skills. IRWIN 1995.
44. Operations Managment. Richard I. Sehonberger, Edward M. Knood. IRWIN, 1994.
45. George J. Posner. Analyizing the Curriculum. Mc Graw - Hill, Ink 1992.
46. Larson, Miller. Financial accountign. IRWIN, 1992.

Introduction to Accounting: An Integrated Approach. P. Ainsworth, D. Danies, R. D. Plumlee, Cathy X. Larson Irwin, 1997.